Spenser juftligi ushbu modellarni solishtirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish uchun har bir model tarkibidagi xulq-atvor ko'rsatkichlarini atroflicha tekshirdi. Barcha modellardan 760 ta xatti-harakat indikatorini ajratib olishga muvaffaq bo'ldilar. Natijada ushbu ko'rsatkichlardan 360 tasi 21 asosiy kompetensiyani ifodalashi, shuningdek har bir alohida model doirasida xulq-atvorning 80% dan 98% gacha qismini qamrab olishi aniqlandi [5].

Kompetentlik yondoshuvining Yevropacha kontseptsiyasi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning amerikacha talqini bilan birga, Yevropada o'ziga xos konseptual yo'nalish shakllangan. Buyuk Britaniyada mazkur metodologiya 1980-yillarda davlatning ishsizlarni qayta tayyorlash siyosati bilan bog'liq holda rivojlana boshladi. Ayni paytda Britan orollarida mavjud malakaga bo'lgan talablar ma'lum bir vazifani bajarish uchun bilim va ko'nikmalarning to'liq doirasini belgilar edi. Kompetensiyaviy standartlar sifatida ish harakatlari ro'yxati qabul qilinib, ular asosida Milliy kasbiy malakalar tizimi shakllantirildi [1].

Fransuz va nemis modellari Yevropada eng keng tarqalgan yo'nalishlar hisoblanadi [1]. Fransiyada kompetensiyaviy tadqiqotlar 1980-yillarning o'zida boshlangan bo'lsa-da, ularning asosiy ommaviy bosqichi 1990-yillarga to'g'ri keladi. Fransuz rivojini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin: korxona doirasidagi tashkiliy kompetensiya g'oyasining vujudga kelishi; menejment va konsultatsiya sohasi uchun amaliy vositalarni yaratish; kompetensiya bo'yicha turli konseptual yondashuvlarning shakllanishi. 1993-yilda Fransiyaning bandlik agentligi (ANPE) bu sohadagi akademik munozaralarni jadallashtirdi. Natijada korxonalar malakalilik (kvalifikatsiya) emas, balki individual kompetensiyani baholash tizimiga o'tdilar. 1990-yillar o'rtasidan keyin kompetensiya tushunchasi kadrlar boshqaruvi tizimida markaziy mavqega ega bo'ldi. MEDEF tomonidan ishga tushirilgan "Obyektiv kompetensiyalar" loyihasi ham bu rivojga turtki berdi. Fransuzcha talqinda kompetensiya uchta tarkibiy qismga ajratiladi: bilim, amaliy tajriba va xulq-atvor xususiyatlari.

Germaniyada esa professionallikni baholashda uzoq vaqt davomida asosiy e'tibor bilimning aniq tavsifiga qaratilgan edi. 1980-yillarda ushbu tizimga "asosiy malakalar" kiritildi. Ular mustaqil harakat, muammolarni yechish, moslashuvchanlik, hamkorlik va axloqiy yetuklik kabi jihatlarni qamrab oldi. 1996-yilda esa Germaniyada "harakat kompetensiyalari" paydo bo'ldi. Nemis tizimida kasbiy (sohaga xos), shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar alohida ta'riflanadi. Kasbiy kompetensiyalar fanga oid bilim va ko'nikmalarga tayanib, muammolarni mustaqil yechish va natijalarni baholashga qaratilgan [6]. Umumiy kognitiv kompetensiyalar esa fanga xos kompetensiyalarni shakllantirish uchun zamin bo'lib, ular muammolarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyatini ifodalaydi [7].

Shaxsiy kompetensiyalar odamning kasbiy va ijtimoiy hayotidagi rejalarni tuzish, muqobil yo'llarni baholash, shuningdek mustaqillik, mas'uliyat, ishonchlilik, burch hissi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy kompetensiyalar esa boshqalar bilan ijobiy va adolatli munosabatlar o'rnatish, ijtimoiy mas'uliyat va birdamlik ruhini rivojlantirish layoqatini tavsiflaydi.

Muhokamalar

Muhandislarning mehnat xavfsizligi kompetensiyasi kasbiy kompetentlikdan tubdan farq qiladi. Chunki muhandis texnologik jarayonlarni ishlatish va boshqarish bilan bir qatorda inson omilini ham boshqaradi va ularning hayotiy faoliyati xavfsizligiga mas'ul hisoblanadi. Bu esa bo'lajak muhandislarda kasbiy kompetentlik bilan uzviy bog'langan holda mehnat xavfsizligi kompetensiyasini ham shakllantirish va rivojlantirish masalasiga borib taqaladi.

Mehnat xavfsizligini to'liq ta'minlash ko'plab omillarni – ilmiy dunyoqarash, fiziologiya, psixologiya, pedagogika, ergonomika, ekologiya, tibbiyot, texnika, tashkiliy va operativ ishlar, huquq, iqtisod kabi sohalarni birlashgan holda ko'rishni taqozo etadi. Bu vazifalarni bajarish uchun turli vositalar mavjud: xavfsiz harakat madaniyatini shakllantirish, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, boshqaruvchilarga psixologik ta'sir etish, texnik va tashkiliy himoya vositalarini qo'llash,

shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, shuningdek imtiyozlar va kompensatsiyalar tizimini yaratish. Bu vositalar bo'lajak mutaxassislarning mehnat xavfsizligi sohasidagi kompetentligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kompetentlik yondashuvini talab qiladi [1].

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarishda xavf darajasini pasaytirish va uzluksiz tavsakalchilikni hisobga olish imkoniyatlari xavfsizlikni boshqarishning metod va texnikalariga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Boshqaruv «inson-muhit» munosabatlariga tashkiliy ta'sir etish yoki xavfli holatni boshqa, nisbatan xavfsizroq holatga keltirishdir. Boshqaruv jarayoni iqtisodiy va texnik ko'rsatkichlarning mos kelishini talab qiladi [8].

Mehnat xavfsizligini boshqarishning asosiy metodologiyasi tizimli yondashuvga asoslangan. Unda tizimli tahlil orqali xavfsizlikni boshqarishning asosiy prinsiplari ishlab chiqiladi. Bu prinsiplar qatoriga quyidagilar kiradi: maqsadni aniq belgilash; muammoni yaxlit ko'rish; alternativ yo'llarni tahlil qilish; oraliq natijalarning umumiy natijaga ta'sir qilmasligi. Bu prinsiplar reallik, aniqlik, adskvatlik, samaradorlik va nazorat qilish talablariga javob berishi shart. Maqsadni ierarxik ko'rish, ya'ni har bir bosqichning natijasi keyingi bosqich va yakuniy natijaga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi muhim [9].

Xavfsizlik bo'yicha talablarni hisobga olish faoliyatning barcha davrini – g'oya, ilmiy tadqiqot, konstruktorlik, loyihalash, amaliyotga joriy etish, tashish, foydalanish, takomillashtirish, konservatsiyalash va tugatishni qamrab olishi lozim.

Mehnat xavfsizligini boshqarish aniq funksional bosqichlardan iborat: obyekt holatini tahlil qilish, rejalashtirish, boshqaruv tizimlarini tashkil etish, nazorat, samaradorlikni aniqlash va rag'batlantirish.

Muhandislarning mehnat xavfsizligi kompetentligini shakllantirish shart-sharoitlariga mos holda mamlakatimiz va xorijiy olimlarning kompetentlik yondoshuvi sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarini tahlillari asosida muhandislik kompetentligiga qo'yidagicha ta'rif beriladi: "Muhandisning kasbiy kompetentligi o'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada olib borish uchun zarur bilim, malaka qobiliyatlar, xodimning dunyoqarashi hamda liderlik potentsiali bilan baholanadi va ayrim hollarda motivlar, e'tiqodlar hamda qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi" [10]. Shu sababli muhandis kompetentligining asosiy xususiyatlariga qo'yidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Muhandisning shaxsiy xarakteristikasini (bilimi, malakasi, motiv, dunyoqarashi, e'tiqodi, qadriyatlar va b.) kompetentlikning asosiy komponenti sifatida qarash.
2. O'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada bajarish qobiliyati.
3. Kompetentlik komponentlarini aniq bir korxona yoki aniq bir shaxs uchun emas, balki umumiy deb qabul qilish.
4. Mehnat xavfsizligi va ekologik komponentlarni o'zida mujassam aks etishi.

Kompetensiyani "muhandisning kasbiy va hayotiy faoliyatiga muhim ta'sir qiladigan, kasbiy vazifalarini qanday darajada bajarishi bilan bog'liq bo'lgan, qabul qilingan standartlar bo'yicha baholanadigan hamda ta'lim olish orqali rivojlanadigan bilimlar majmui ma'lum bir soha bo'yicha bilimlar majmui"- deb ta'riflashimiz mumkin [11]. Kompetensiyaning ushbu ta'rifida asosiy e'tibor bilimlar majmuiga qaratiladi, lekin ta'kidlash joizki faqat bilim va malaka insonni kompetentli mutaxassis sifatida baholashga asos bo'lmaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida egallangan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni malakali ravishda kasbiy faoliyatda qo'llay olish ham talab etiladi. Ta'rifda "standartlar bo'yicha baholanadigan"- degan jumlaning ishlatilishida mutaxassisning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini yoki ish faoliyatini yoki aniq bir o'rnatilgan mezonlar (standart, nizom va b.) asosida baholanishi nazarda tutilgan. Shu sababli ushbu ta'rifning boshqa ta'riflardan farqi baholash natijasida xodimni tanlash yoki uning kelajakdagi faoliyatini bashoratlash mumkin bo'ladi [12]. Bundan tashqari muhandisning kasbiy kompetensiyasi standart va nostnadart vaziyatlarni boshqara olish va mehnat xavfsizligini ta'minlash malakasi bilan ham baholanadi.

Muhandisning mehnat xavfsizligi kompetensiyasini shakllantirish modeli kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish sxemasi hisoblanadi va nazariy metod sifatida pedagogikada keng qo'llaniladi. Ushbu metod integrativ hisoblanib, pedagogik tadqiqotlarning empirik va nazariy elementlarini umimlashtirgan holda xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

Xulosa

Kompetentliklar profilining aniqlanishi mutaxassislar tomonidan o'z kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda alohida ahamiyatga ega. Mazkur tushunchani strategik kadrlar boshqaruvi doirasidagi bilimlar va ko'nikmalar majmui deb baholash mumkin. Kompetentlik bir qancha tarkibiy qismlardan - shaxsiy ilmiy salohiyat, amaliy ko'nikmalar, ishchanlik tajribasi va shaxsiy xususiyatlardan tashkil topadi. De Tech Development Technologies shirkati tomonidan taklif etilgan model esa kompetensiyalarni "20 aspekt" asosida izohlaydi.

Kompetentlik muammosining ko'p yo'nalishli va murakkabligiga qaramay, bugungi kunda bu sohada yetarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. "Kompetentlik" va "kompetensiya" terminlari idora qilish nazariyasi va pedagogika amaliyotida faol ishlatilishiga qaramasdan, ularning ta'riflari borasida hozircha yagona nuqtai nazar mavjud emas. Ayniqsa, turli davlatlardagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan berilayotgan ta'riflar bir-biridan farq qiladi.

Shunday ekan, mehnat xavfsizligini ta'minlash borasida ham kompetentlik yondashuvi asosidagi izlanishlarni chuqurlashtirish zaruriyati dolzarb ilmiy masala sifatida qolmoqda.

Adabiyotlar

- [1] Субочев Н.С., Архипова Т.Г. С 89 Компетентностный подход в управлении персоналом: учебное пособие / Н. С. Субочев, Т. Г. Архипова; Волгоградский институт управления – филиал ФГБОУ ВО РАНХиГС. – Волгоград: Издательство Волгоградского института управления – филиала РАНХиГС, 2016
- [2] Рахимов О. Д. Инновацион педагогик технологиялар: лойиҳалар услуги таълим сифатини оширувчи технология сифатида // Қарши, ТАТУ Қарши филиали. – 2013. – Т. 80.
- [3] McClelland, D. C. (1973). Testing for competence rather than for intelligence. *American Psychologist*, 28(1), 1–14.
- [4] Boyatzis, R. E. (1982). The competent manager: A model for effective performance. New York: John Wiley & Sons.
- [5] Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1993). Competence at work: Models for superior performance. New York: John Wiley & Sons.
- [6] Grasser, B., Loufrani-Fedida, S., & Oiry, E. (2020). The conceptual travel of competence: Building a bridge between North American and European approaches. //Managing Competences.
- [7] Хуторской, А. В. (2003). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования //Народное образование, (2), 55-61.
- [8] Рахимов О. Электрон таълим ресурсларини яратиш талаблари ва технологияси //Современное образование (Узбекистан). – 2016. – №. 2. – С. 45-50.
- [9] Зимняя, И. А. (2004). Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.
- [10] Dustkabilovich R. O. Innovative technologies in teaching directors and specialists of industrial enterprises on labor protection //O 'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Akademiyasi axborotnomasi. – 2021. – с. 108.
- [11] Михнюк, М. И., & Абитова, Ш. Ю. (2019). Компетентностный подход к подготовке будущих специалистов в области охраны труда // Проблемы современного педагогического образования.
- [12] Шадриков, В. Д. (2004). Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня, (8), 26-31.

UO‘K: 331.45:005(575.1)

<https://doi.org/10.70769/2181-4732.ITJ.2026-2.15>

O‘ZBEKISTON KICHIK KORXONALARIDA MEHNAT XAVFSIZLIGI MADANIYATINING SOHALARARO TAQQOSLAMALI TAHLILI

Mustafayev Bilolbek Eshmurod o‘g‘li - doktorant (PhD),
E-mail: Mustafayev20@gmail.com, ORCID: 0009-0006-4698-3876,
Science ID: MQD -0726-0320

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston kichik korxonalarida mehnat xavfsizligi madaniyatining turli sohalaridagi holatini qiyosiy tahlil qilish natijalari keltirilgan. Tadqiqot 2023–2025 yillarda Qashqadaryo viloyatidagi uch xil sohada faoliyat yurituvchi korxonalarda o‘tkazildi: to‘qimachilik va qandolatchilik, neft-gaz xizmatlari hamda xizmat ko‘rsatish sohalari. OSCI-UZ diagnostik indeksi yordamida 33 nafar xodim qamrab olingan holda xavfsizlik madaniyatining 7 ta asosiy o‘lchovi bo‘yicha batafsil baholash amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, neft-gaz xizmatlari sohasida xavfsizlik madaniyati darajasi eng past (50,6 ball), to‘qimachilik va xizmat ko‘rsatish sohalari esa nisbatan yuqori (58,0 ball) ekan. Barcha sohalarda hodisalardan o‘rganish o‘lchovi eng zaif (38,5–44,7 ball), me‘yoriy rioya etilishi esa eng yuqori (61,7–68,5 ball) natijalarni ko‘rsatdi. Yaxshilash tadbirlari natijasida neft-gaz sohasida 24,1%, boshqa sohalarda 19,8% o‘sish qayd etildi. Sohalararo farqlar xavflilik darajasi, xodimlar tajribasi va korxona o‘lchamlari bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: mehnat xavfsizligi, xavfsizlik madaniyati, sohalararo tahlil, qiyosiy tadqiqot, kichik korxonalar, OSCI-UZ, diagnostik indeks.

UDK: 331.45:005(575.1)

МЕЖОТРАСЛЕВОЙ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КУЛЬТУРЫ ОХРАНЫ ТРУДА В МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Мустафаев Биолбек Эшмурод угли - докторант (PhD)

Научно-исследовательский институт ирригации и водных проблем, г. Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлены результаты сравнительного анализа состояния культуры безопасности труда на малых предприятиях Узбекистана в различных отраслях. Исследование проводилось в 2023–2025 годах на предприятиях Кашкадарьинской области, работающих в трёх сферах: текстильной и кондитерской промышленности, нефтегазовом сервисе, а также сфере услуг. С использованием диагностического индекса OSCI-UZ было охвачено 33 сотрудника, проведена детальная оценка по 7 ключевым показателям культуры безопасности. Результаты показали, что самый низкий уровень культуры безопасности наблюдается в нефтегазовом секторе (50,6 балла), тогда как в текстильной и сфере услуг он выше (58,0 балла). Во всех секторах наименее развитым показателем оказалось обучение на основе происшествий (38,5–44,7 балла), тогда как соблюдение нормативов показало наилучшие результаты (61,7–68,5 балла). В результате внедрения мероприятий по улучшению зафиксирован рост: в нефтегазовой сфере — на 24,1%, в других — на 19,8%. Выявлено, что межотраслевые различия связаны с уровнем опасности, опытом работников и масштабами предприятий.

Ключевые слова: охрана труда, культура безопасности, межотраслевой анализ, сравнительное исследование, малые предприятия, OSCI-UZ, диагностический индекс.

UDC: 331.45:005(575.1)

COMPARATIVE ANALYSIS OF OCCUPATIONAL SAFETY CULTURE IN SMALL ENTERPRISES OF UZBEKISTAN BY INDUSTRY

Bilolbek Mustafayev, doctoral student

Research Institute of Irrigation and Water Problems, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article presents the results of a comparative analysis of occupational safety culture in small enterprises of Uzbekistan across different sectors. The study was conducted in 2023–2025 in enterprises operating in Kashkadarya region within three sectors: textile and confectionery, oil and gas services, and the service industry. Using the OSCI-UZ diagnostic index, a total of 33 employees were assessed through a comprehensive evaluation based on 7 key dimensions of safety culture. The results revealed that the lowest level of safety culture was observed in the oil and gas sector (50.6 points), while relatively higher levels were found in the textile and service sectors (58.0 points). Across all sectors, the weakest dimension was learning from incidents (38.5–44.7 points), whereas regulatory compliance showed the highest scores (61.7–68.5 points). Following improvement measures, an increase of 24.1% was recorded in the oil and gas sector and 19.8% in other sectors. Intersectoral differences were found to be associated with hazard levels, employee experience, and enterprise size.

Keywords: occupational safety, safety culture, cross-sectoral analysis, comparative study, small enterprises, OSCI-UZ, diagnostic index.

Kirish

Mehnat xavfsizligi madaniyati har qanday korxonaning barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Turli sohalardagi korxonalar o'ziga xos xavflar, ishlab chiqarish jarayonlari va xavfsizlik talablari bilan tavsiflanadi. Kichik korxonalarda esa bu muammolar yanada murakkablashadi, chunki ular ko'pincha cheklangan resurslarga, past malakali xodimlarga va zaif boshqaruv tizimlariga ega. Jahon amaliyotida turli sohalar uchun xavfsizlik madaniyatini baholash bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Cooper va Finley (1997) sanoat korxonalari uchun, Flin va boshqalar (2000) aviatsiya sohasida, Parker va boshqalar (2006) qurilish sohasi uchun maxsus metodikalar ishlab chiqishgan. Biroq O'zbekiston sharoitida turli sohalardagi kichik korxonalarni qiyoslash imkonini beruvchi milliy tadqiqotlar kam [1, 2, 3]. O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalar iqtisodiyotning muhim qismini tashkil etadi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, ular yalpi ichki mahsulotga 60% dan ortiq hissa qo'shadi va ish joylarining 78,5% ini ta'minlaydi. Shu bilan birga, har xil sohalardagi korxonalar mehnat xavfsizligi nuqtai nazaridan turlicha muammolarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston kichik korxonalarida mehnat xavfsizligi madaniyatining turli sohalardagi holatini OSCI-UZ diagnostik indeksi yordamida qiyosiy tahlil qilish va har bir soha uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va uslublar

Tadqiqot 2023-2025 yillarda Qashqadaryo viloyatida o'tkazildi. Tanlamaga uch xil sohada faoliyat yurituvchi kichik korxonalar kiritildi: to'qimachilik va qandolatchilik sohasi (10 nafar xodim), neft-gaz xizmatlari sohasi (8 nafar xodim), xizmat ko'rsatish sohasi (15 nafar xodim). Jami 33 nafar xodim tadqiqotda ishtirok etdi. Korxonalarning umumiy tavsifi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval. Tadqiqotda ishtirok etgan korxonalarning umumiy tavsifi

Soha	Xodimlar	O'rtacha yosh	Ish staji	Ishtirok, %
To'qimachilik/qandolatchilik	10	25,4	4,8 yil	70%
Neft-gaz xizmatlari	8	52,0	10,0 yil	50%
Xizmat ko'rsatish	15	30,4	4,8 yil	50%

Tadqiqot uchun OSCI-UZ (Occupational Safety Culture Index - Uzbekistan) diagnostik indeksidan foydalanildi [4]. Bu metodika 7 ta asosiy o'lchov va 42 ta indikordan iborat bo'lib, Cronbach alfa koeffitsiyenti $\alpha=0,89$ bilan yuqori ishonchlilikka ega. Baholash 5 ballik Likert shkalasi asosida amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama


To'qimachilik va qandolatchilik sohasidagi korxonada umumiy OSCI-UZ indeksi 58,0 ballni tashkil etdi (2-jadval), bu o'rta darajaga to'g'ri keladi. Eng yuqori natija me'yoriy rioya etilishi o'lchovida (68,5 ball), eng past natija esa hodisalardan o'rganish o'lchovida (44,7 ball) qayd etildi. Rahbariyat majburiyati (65,2 ball) hamda resurslar va infratuzilma (62,1 ball) ham nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. Ushbu sohaga xos asosiy xavflar quyidagilardan iborat: to'quv dastgohlarida jarohatlanish, chang va allergik reaksiyalar, ergonomik muammolar (uzoq vaqt bir holatda ishlash) [5]. Yaxshilash tadbirlari natijasida dastgohlardan jarohatlanish 3 tadan 1 tagacha, chang miqdori buzilishlari 5 tadan 2 tagacha kamaydi. Himoya vositalari foydalanish darajasi 65% dan 87% ga oshdi.

Neft-gaz xizmatlari sohasidagi korxonada OSCI-UZ indeksi barcha sohalar ichida eng past – 50,6 ballni tashkil etdi. Bu yuqori xavflilik darajasiga ega bo'lgan sohada xavfsizlik madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Eng zaif tomoni hodisalardan o'rganish o'lchovi (38,5 ball - past daraja), eng kuchli tomoni esa me'yoriy rioya etilishi (61,7 ball). Sohaga xos xavflar: balandlikda ishlash, yong'in va portlash xavfi, og'ir yuklar ko'tarish, kimyoviy moddalar bilan aloqa. Tadbirlar natijasida balandlikdan tushish buzilishlari 7 tadan 2 tagacha, himoya to'siqlari buzilishlari 5 tadan 1 tagacha kamaydi. Shaxsiy himoya vositalari foydalanish 62% dan 89% ga oshdi. Biroq nisbatan yuqori o'sishga (24,1%) qaramay, bu soha hali ham past darajada qolmoqda.


Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonada OSCI-UZ indeksi to'qimachilik sohasiga o'xshash 58,0 ballni tashkil etdi. O'lchovlar bo'yicha taqsimot ham deyarli bir xil: me'yoriy rioya etilishi 68,5 ball, hodisalardan o'rganish 44,7 ball. Bu o'xshashlik ikki sohada ham nisbatan past xavflilik darajasi va o'xshash boshqaruv yondashuvlari bilan bog'liq [6].

2-jadval. Sohalar bo'yicha OSCI-UZ o'lchovlari natijalari

O'lchov	To'qimachilik	Neft-gaz	Xizmat ko'rsatish	Farq
Rahbariyat majburiyati	65,2	58,4	65,2	6,8
Xodimlar ishtiroki	54,8	45,2	54,8	9,6
O'qitish va malaka	51,6	42,8	51,6	8,8
Xavflarni boshqarish	59,3	52,6	59,3	6,7
Hodisalardan o'rganish	44,7	38,5	44,7	6,2
Resurslar va infratuzilma	62,1	55,3	62,1	6,8
Me'yoriy rioya etilishi	68,5	61,7	68,5	6,8
UMUMIY INDEKS	58,0	50,6	58,0	7,4



1-rasm. Sohalar bo'yicha OSCI-UZ o'lchovlari.



2-rasm. Sohalar bo'yicha OSCI-UZ indeksining o'zgarishi


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki (1- va 2-rasmlar), turli sohalarida mehnat xavfsizligi madaniyati darajasi sezilarli farq qiladi [7]. Neft-gaz xizmatlari sohasida OSCI-UZ indeksi eng past (50,6 ball), to'qimachilik va xizmat ko'rsatish sohalarida esa bir xil (58,0 ball).

Bu farqlar bir necha omillar bilan bog'liq. Birinchidan, xavflilik darajasi muhim rol o'ynaydi. Neft-gaz sohasida xavflar yuqori bo'lsa-da, xavfsizlik madaniyati past. Bu paradoks shuni ko'rsatadiki, faqat xavf mavjudligi avtomatik ravishda yuqori xavfsizlik madaniyatiga olib kelmaydi [8]. Aksincha, to'g'ri boshqaruv va investitsiyalar kerak. Ikkinchidan, xodimlarning tajribasi va yoshi ta'sir ko'rsatadi. Neft-gaz sohasida o'rtacha yosh 52, ish staji 10 yil, boshqa sohalarida esa yosh va yangi xodimlar ko'p. Tajribali xodimlar ko'pincha xavfsizlik qoidalarini e'tiborsiz qoldirishadi, chunki "men buni ko'p marta qildim, hech narsa bo'lmaydi" deb o'ylashadi. Uchinchidan, korxona o'lchami va tuzilmasi muhim. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonada 15 nafar xodim bor, bu kichik guruhda muloqot va nazoratni osonlashtiradi. Neft-gaz sohasida esa 8 nafar bo'lsa-da, ularning katta qismi (6 nafar) dala sharoitida ishlaydi, bu nazoratni qiyinlashtiradi.

Umumiy tendentsiyalar. Barcha uch sohada ham quyidagi umumiy tendentsiyalar kuzatildi (3-rasm):

Me'yoriy rioya etilishi barcha sohalarida eng yuqori natijalarni ko'rsatdi (61,7-68,5 ball). Bu shuni anglatadiki, kichik korxonalar qonunchilik talablarini rasmiy bajarishga e'tibor berishadi, lekin haqiqiy xavfsizlik madaniyati kamroq rivojlangan [9].

Hodisalardan o'rganish barcha sohalarida eng zaif tomoni (38,5-44,7 ball). Bu tizimli tahlil va to'g'rilovchi choralar mexanizmi yo'qligini ko'rsatadi. Baxtsiz hodisa yuz berganda, faqat aybdorni jazolash bilan cheklaniladi, lekin asosiy sabablarga e'tibor berilmaydi [10].



3-rasm. O'lchovlar bo'yicha sohalararo taqqoslash

Xodimlar ishtiroki barcha sohalarida o'rtacha darjada (45,2-54,8 ball). Xodimlar xavfsizlik qarorlarini qabul qilishda yetarlicha ishtirok etmaydi, ularning fikrlari e'tiborga olinmaydi (3-jadval).

3-jadval. Sohalararo qiyosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	To'qimachilik	Neft-gaz	Xizmat ko'rsatish
Boshlang'ich OSCI-UZ	58,0	50,6	58,0
Yakuniy OSCI-UZ	69,5	62,8	69,5
O'sish (%)	+19,8%	+24,1%	+19,8%
Eng yuqori o'lchov	Me'yoriy rioya (68,5)	Me'yoriy rioya (61,7)	Me'yoriy rioya (68,5)
Eng past o'lchov	Hodisalardan o'rganish (44,7)	Hodisalardan o'rganish (38,5)	Hodisalardan o'rganish (44,7)

O'zbekiston kichik korxonalarida mehnat xavfsizligi madaniyatining sohalararo qiyosiy tahlili bir qator muhim xulosalarga olib keldi. Birinchidan, turli sohalarida xavfsizlik madaniyati darajasi sezilarli farq qilishi aniqlandi. Eng past daraja neft-gaz sohasida 50,6 ballni tashkil etgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich to'qimachilik va xizmat ko'rsatish sohalarida 58,0 ball darajasida qayd etildi. Ikkinchidan, barcha sohalarida umumiy muammo sifatida hodisalardan o'rganish tizimining zaif rivojlanganligi kuzatildi. Bu o'lchov barcha sohalarida eng past natijalarni ko'rsatib, 38,5 dan 44,7 ball oralig'ida baholandi. Uchinchidan, me'yoriy rioya etilishi barcha sohalarida eng yuqori natijaga ega bo'lib, 61,7 dan 68,5 ball oralig'ida bo'ldi, lekin bu ko'rsatkich faqat rasmiy talablarga rioya qilishni aks ettiradi, haqiqiy xavfsizlik madaniyatining shakllanganligini to'liq tasdiqlamaydi. To'rtinchidan, amalga oshirilgan yaxshilash tadbirlari barcha sohalarida ijobiy natija berdi, bunda eng katta o'sish neft-gaz sohasida 24,1% ni tashkil etdi, bu esa ushbu sohada boshlang'ich darajaning eng past bo'lganligidan kelib chiqqan holda izohlanadi. To'qimachilik va qandolatchilik sohasi uchun quyidagi tadbirlar tavsiya etiladi. Birinchi navbatda, chang nazorat tizimini mustahkamlash va havo filtrlash uskunalarini muntazam tekshirish zarur. Shuningdek, ergonomik ish joylarini yaratish va tanaffuslar jadvalini optimallashtirish orqali xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash lozim. Bundan tashqari, dastgoh xavfsizligi bo'yicha o'qitishlarni kuchaytirish va xodimlarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Neft-gaz xizmatlari sohasida eng ko'p e'tibor talab qiladigan yo'nalishlar mavjud. Tajribali xodimlar uchun qayta o'qitish dasturlarini joriy etish va ularning bilimlarini yangilash zaruriyati mavjud. Balandlikda ishlash bo'yicha qat'iy nazoratni o'rnatish va tegishli xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash kerak. Hodisalarni tahlil qilish va to'g'rilovchi choralar mexanizmini yaratish orqali xavfsizlik tizimini uzluksiz takomillashtirish lozim. Shuningdek, xodimlar ishtiroki tizimini rivojlantirish va ularning xavfsizlik qarorlarini qabul qilishda faol ishtirokini ta'minlash muhimdir [11]. Xizmat ko'rsatish sohasida ham bir qator maxsus choralar zarur. Yangi xodimlar uchun yo'naltiruv dasturlarini yaxshilash va ularni ish jarayoniga to'g'ri kiritish kerak. Mijozlar bilan ishlashdagi xavfsizlik aspektlarini o'rgatish va muloqot jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash lozim [12, 13]. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo'yicha mashqlar o'tkazish va xodimlarning to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Barcha sohalar uchun eng muhim vazifa hodisalardan o'rganish tizimini joriy etishdir. Buning uchun bir qator ketma-ket tadbirlarni amalga oshirish zarur. Har bir hodisa va xavfli vaziyat to'g'risida to'liq hisobot tayyorlash va ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plash kerak [13, 14]. Asosiy sabablarni aniqlash uchun batafsil tahlil o'tkazish va muammolarning ildiz sabablariga yetib borish lozim. To'g'rilovchi choralarni ishlab chiqish va ularni amalda samarali amalga oshirish muhimdir. Bundan tashqari, to'plangan tajribani boshqa xodimlar bilan almashish va umumiy bilim bazasini

shakllantirish zarur. Kelajakda tadqiqotni kengaytirish bo'yicha bir qator takliflar mavjud. Ko'proq korxonalarni tadqiqot doirasiga kiritish va kengroq tanlamani shakllantirish tavsiya etiladi. Turli hududlarda tadqiqotlar o'tkazish va hududiy xususiyatlarni hisobga olish lozim. Uzoq muddatli monitoring tashkil etish va dinamik o'zgarishlarni kuzatib borish muhimdir. Iqtisodiy samaradorlikni batafsil tahlil qilish va xavfsizlik madaniyatining moliyaviy ta'sirini baholash zarur. OSCI-UZ diagnostik indeksi O'zbekiston sharoitida turli sohalaridagi kichik korxonalar uchun xavfsizlik madaniyatini baholashning samarali vositasi ekanligi amaliy sinov natijalarida tasdiqlandi. Ushbu metodika yordamida zaif tomonlarni aniq aniqlash, muammoli yo'nalishlarni belgilash va har bir korxona uchun maqsadli yaxshilash dasturlarini ishlab chiqish mumkin. Metodikaning soddaligi, arzonligi va milliy sharoitlarga moslashganligi uni kichik korxonalar uchun qulay va samarali vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar

- [1] Cooper M.D., Finley L.J. Strategic safety culture roadmap // Professional Safety. – 1997. – Vol. 42. – No. 2. – P. 28-33.
- [2] Flin R., Mearns K., O'Connor P., Bryden R. Measuring safety climate: identifying the common features // Safety Science. – 2000. – Vol. 34. – No. 1-3. – P. 177-192.
- [3] Parker S.K., Axtell C.M., Turner N. Designing a safer workplace: importance of job autonomy, communication quality, and supportive supervisors // Journal of Occupational Health Psychology. – 2006. – Vol. 6. – No. 3. – P. 211-228.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi. 2023-yil mehnat xavfsizligi hisoboti. – Toshkent, 2024. – 87 b.
- [5] International Labour Organization (ILO). Safety and health at work. – Geneva: ILO, 2023. – 145 p.
- [6] Reason J. Managing the risks of organizational accidents. – London: Ashgate, 1997. – 252 p.
- [7] Guldenmund F.W. The nature of safety culture: a review of theory and research // Safety Science. – 2000. – Vol. 34. – No. 1-3. – P. 215-257.
- [8] Cooper M.D., Phillips R.A. Exploratory analysis of the safety climate and safety behavior relationship // Journal of Safety Research. – 2004. – Vol. 35. – No. 5. – P. 497-512.
- [9] Cronbach L.J. Coefficient alpha and the internal structure of tests // Psychometrika. – 1951. – Vol. 16. – No. 3. – P. 297-334.
- [10] Wiegmann D.A., Zhang H., von Thaden T.L., Sharma G., Mitchell A.A. A synthesis of safety culture and safety climate research. – University of Illinois, 2002. – 115 p.
- [11] Hudson P. Safety culture – the ultimate goal // Flight Safety Australia. – 2001. – Vol. 5. – No. 4. – P. 29-31.
- [12] Neal A., Griffin M.A. A study of the lagged relationships among safety climate, safety motivation, safety behavior, and accidents // Journal of Applied Psychology. – 2006. – Vol. 91. – No. 4. – P. 946-953.
- [13] Clarke S. The relationship between safety climate and safety performance: a meta-analytic review // Journal of Occupational Health Psychology. – 2006. – Vol. 11. – No. 4. – P. 315-327.
- [14] Saaty T.L. Decision making with the analytic hierarchy process // International Journal of Services Sciences. – 2008. – Vol. 1. – No. 1. – P. 83-98.

UO‘K: 620.9:628.16:536.2:532.546

<https://doi.org/10.70769/2181-4732.ITJ.2026-2.16>

KAPILLYAR TUZILMALI G‘OVAK MUHIT YORDAMIDA QUYOSH CHUCHUTGICHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: UCH O‘LCHOVLI SONLI TAHLIL VA EKSPERIMENTAL TASDIQLASH

Asqarov Murodbek – mustaqil izlanuvchi, E-mail: asqarov.murodbek@gmail.com,
ORCID: 0009-0003-5182-7630, Science ID: MXR-0426-0217

Raximov Nurbek Zokirovich – assistent, E-mail: rahimov1570@gmail.com,
ORCID: 0000-0002-5194-5843, Science ID: MQD-0626-0103

Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot kapillyar tuzilmali g‘ovak membrana bilan integratsiyalangan quyosh energiyasida ishlovchi chuchutish qurilmasi uchun kompleks uch o‘lchovli sonli modelni taqdim etadi. Boshqaruvchi tenglamalar, jumladan, issiqlik almashinuvi, kapillyar ta’sirida yuzaga keluvchi massa almashinuvi, Darcy-Brinkman impuls tenglamalari hamda Hertz-Knudsen formulasi asosidagi fazalararo bug‘lanish jarayonlari chekli hajmlar usuli (FVM) yordamida $6,4 \times 10^6$ nazorat hajmlaridan iborat to‘rda bir vaqtda yechildi va ikkinchi tartibli L^2 xatolik 0,28% ga erishildi. G‘ovaklik ($\varphi=0,20-0,90$) va kapillyar diametri ($d=10-200$ mkm) bo‘yicha parametrik optimallashtirish natijasida $\varphi=0,65$ va $d=35$ mkm qiymatlarda eng yaxshi ekanligi aniqlanib, maksimal issiqlik samaradorligi $\eta=83,7 \pm 2,2\%$ hamda kunlik chuchuk suv ishlab chiqarish $14,8 \pm 0,8$ kg/m²-kun ga yetgani qayd etildi (1000 W/m² quyosh nurlanishi sharoitida), bu an’anaviy tekis absorberlarga nisbatan 97,9 % ga yuqori ko‘rsatkichni tashkil etadi.

Kapillyar strukturali g‘ovak membrana (CPM) asosidagi quyosh chuchitgich qurilmasi Darcy-Brinkman-Forchheimer 3D matematik model yordamida tadqiq etildi. Issiqlik uzatish, massa almashish va kapillyar momentum tenglamalari bir vaqtda yechildi. Adaptiv chekli hajmlar metodi (FVM) $6,4 \times 10^6$ boshqaruv hajmli tarmoqda ikkinchi tartibli aniqlikda amalga oshirildi. G‘ovaklilik $\varphi = 0,20-0,90$ va kapillyar diametr $d=10-200$ μ m oralig‘ida parametrik optimallashtirish o‘tkazildi. Model natijalari laboratoriya tajribalari bilan taqqoslanib tasdiqlandi. Bug‘lanish kinetikasi Hertz-Knudsen tenglamasi orqali, tuz transporti esa reaktiv adveksiya-diffuziya tenglamasi orqali modellashtirildi.

Optimal konfiguratsiya $\varphi=0,65$ va $d=35$ μ m bo‘lganda issiqlik samaradorligi $\eta=83,7 \pm 2,2\%$ ga, kunlik hosildorlik esa $14,8 \pm 0,8$ kg/m²-kun ga yetdi. Bu ko‘rsatkichlar an’anaviy va yassi qurilmaga nisbatan mos ravishda 97,9 % va 185 % yuqori bo‘ldi. Sonli model tajriba ma’lumotlari bilan MAE=1,9% va $R^2=0,9974$ aniqlikda mos keldi. Kapillyar oqim konsentratsiya polyarizatsiyasini 44,3% ga kamaytirdi va erigan moddalarni 62 ± 12 mg/L ga tushirdi, bu WHO standartidan 8 baravar past. Optimallik cho‘qqisi $\varphi \approx 0,645$ da irradiance qiymatidan mustaqil ravishda saqlanib qoldi. Kapillyar qurilma an’anaviy absorberga nisbatan tuz qoldig‘ini 480 dan 62 mg/L ga kamaytirib, suv tozaligini tubdan yaxshiladi.

Kalit so‘zlar: quyosh chuchutish, kapillyar tuzilmali g‘ovak membrana, chekli hajmlar usuli, issiqlik samaradorligi, kapillyar chiqish, kontsentratsion polaryatsiya, Hertz-Knudsen bo‘yicha bug‘lanish.

УДК: 620.9:628.16:536.2:532.546

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЛНЕЧНОГО ОПРЕСНИТЕЛЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КАПИЛЛЯРНО-СТРУКТУРИРОВАННОЙ ПОРИСТОЙ СРЕДЫ: ТРЁХМЕРНЫЙ ЧИСЛЕННЫЙ АНАЛИЗ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ВАЛИДАЦИЯ

Аскарлов Муродбек – самостоятельный соискатель
Рахимов Нурбек Зокирович – ассистент

Каршинский государственный технический университет, г. Карши, Узбекистан

Аннотация. Данное исследование представляет собой комплексную трёхмерную сопряжённую численную модель солнечного опреснительного устройства, включающего капиллярно-структурированную пористую мембрану (СРМ). Управляющие уравнения, охватывающие сопряжённый теплообмен, капиллярно-обусловленный массоперенос, уравнения импульса Дарси-Бринкмана и межфазное испарение по формулировке Герца-Кнудсена, решаются совместно с использованием адаптивного метода конечных объёмов (FVM) на сетке, содержащей $6,4 \times 10^6$ контрольных объёмов, с достижением ошибки второго порядка L^2 , равной 0,28%. Параметрическая оптимизация по пористости ($\phi=0,20-0,90$) и диаметру капилляров ($d=10-200$ мкм) позволила определить глобальный оптимум при $\phi=0,65$ и $d=35$ мкм, обеспечивающий максимальную тепловую эффективность $\eta=83,7 \pm 2,2\%$ и суточную производительность по пресной воде $14,8 \pm 0,8$ кг/м²·сут при солнечной радиации 1000 Вт/м², что на 97.9% превышает показатели традиционных плоских абсорберов.

Солнечная опреснительная установка на основе капиллярно-структурированной пористой мембраны (СРМ) была исследована с использованием трёхмерной математической модели, основанной на уравнениях Дарси-Бринкмана-Форхгеймера. Уравнения теплопереноса, массопереноса и импульса с учётом капиллярных сил решались совместно в связанной постановке. Адаптивный метод конечных объёмов (FVM) был реализован со вторым порядком точности на вычислительной сетке, содержащей $6,4 \times 10^6$ контрольных объёмов. Проведена параметрическая оптимизация в диапазоне пористости $\phi=0,20-0,90$ и диаметра капилляров $d=10-200$ мкм. Результаты модели были верифицированы с использованием лабораторных экспериментов. Кинетика испарения описывалась уравнением Герца-Кнудсена, а транспорт солей моделировался с помощью реакционно-конвективно-диффузионного уравнения.

При оптимальной конфигурации $\phi=0,65$ и $d=35$ мкм тепловая эффективность достигла $\eta=83,7 \pm 2,2\%$, а суточная производительность составила $14,8 \pm 0,8$ кг/м²·сут. Эти показатели превышают характеристики традиционного плоского абсорбера на 97,9% и 185% соответственно. Численная модель показала высокое совпадение с экспериментальными данными: средняя абсолютная ошибка (MAE) составила 1.9%, а коэффициент детерминации $R^2=0,9974$. Капиллярный латеральный поток снизил концентрационную поляризацию на 44,3% и уменьшил общее содержание растворённых веществ в выходной воде до 62 ± 12 мг/л, что в 8 раз ниже предельно допустимого уровня по стандартам ВОЗ. Оптимальное значение пористости ($\phi \approx 0,645$) сохранялось независимо от уровня солнечной радиации. По сравнению с традиционным абсорбером капиллярная система снизила солесодержание с 480 мг/л до 62 мг/л, существенно улучшив качество очищенной воды.

Ключевые слова: солнечное опреснение, капиллярно-структурированная пористая мембрана, метод конечных объёмов, тепловая эффективность, капиллярное перекачивание, концентрационная поляризация, испарение по Герцу-Кнудсену.

UDC: 620.9:628.16:536.2:532.546

ENHANCING SOLAR DESALINATION EFFICIENCY THROUGH CAPILLARY-STRUCTURED POROUS MEDIA: A THREE-DIMENSIONAL COUPLED NUMERICAL ANALYSIS AND EXPERIMENTAL VALIDATION

Murodbek Asqarov, independent researcher

Nurbek Rakhimov, assistant

Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. This study presents a comprehensive three-dimensional coupled numerical model for a solar-driven desalination device incorporating a capillary-structured porous membrane (CPM). The governing equations-encompassing conjugate heat transfer, capillary-driven mass transport, Darcy-Brinkman momentum, and interfacial evaporation via the Hertz-Knudsen formulation-are solved simultaneously using an adaptive finite-volume method (FVM) on a mesh of 6.4×10^6 control

volumes, achieving a second-order L^2 error of 0.28%. Parametric optimisation over porosity ($\phi = 0.20$ -0.90) and capillary diameter ($d=10$ -200 μm) identifies the global optimum at $\phi=0.65$ and $d=35 \mu\text{m}$, yielding a peak thermal efficiency of $\eta=83.7 \pm 2.2\%$ and a daily freshwater productivity of $14.8 \pm 0.8 \text{ kg/m}^2\text{d}$ under 1000 W/m^2 irradiance a 97.9% improvement over conventional flat-plate absorbers.

A solar desalination system based on a capillary-structured porous membrane (CPM) was investigated using a three-dimensional mathematical model based on the Darcy–Brinkman–Forschheimer framework. Heat transfer, mass transport, and capillary-driven momentum equations were solved in a fully coupled manner. The adaptive finite volume method (FVM) was implemented with second-order accuracy on a computational mesh consisting of 6.4×10^6 control volumes. Parametric optimization was performed over a porosity range of $\phi=0.20$ -0.90 and capillary diameter range of $d=10$ -200 μm . The model results were validated against laboratory experiments. Evaporation kinetics were described using the Hertz–Knudsen equation, while salt transport was modeled using a reactive advection–diffusion equation.

At the optimal configuration of $\phi=0.65$ and $d=35 \mu\text{m}$, the thermal efficiency reached $\eta=83.7 \pm 2.2\%$, while the daily water yield achieved $14.8 \pm 0.8 \text{ kg/m}^2 \cdot \text{day}$. These values are higher than those of a conventional flat-plate absorber by 97.9% and 185%, respectively. The numerical model showed excellent agreement with experimental data, with a mean absolute error (MAE) of 1.9% and a coefficient of determination $R^2=0.9974$. Capillary-driven lateral flow reduced concentration polarization by 44.3% and decreased the effluent total dissolved solids (TDS) to $62 \pm 12 \text{ mg/L}$, which is eight times lower than the WHO standard limit. The optimal porosity peak ($\phi \approx 0.645$) remained stable regardless of variations in solar irradiance. Compared to the conventional absorber, the capillary-based system reduced salt concentration from 480 mg/L to 62 mg/L , significantly improving water purity.

Keywords: solar desalination, capillary-structured porous membrane, finite-volume method, thermal efficiency, capillary pumping, concentration polarization, Hertz-Knudsen evaporation.

1. Introduction

Global freshwater scarcity is one of the most pressing challenges of the twenty-first century. According to the United Nations World Water Development Report [1], more than 3.5 billion people currently face water stress conditions, a figure projected to rise to 5.7 billion by 2050. Thermal desalination-particularly solar-driven interfacial evaporation-has emerged as an attractive and sustainable alternative to reverse osmosis and multi-stage flash distillation because it operates on freely available solar irradiance without consumable chemicals or high-pressure machinery [2].

Conventional solar stills and flat-plate absorbers, however, convert only 30–50% of incident solar energy into useful evaporation work, primarily due to thermal losses from the bulk liquid to the environment and insufficient transport of saline feed water to the hot evaporation surface [3-4]. Closing this efficiency gap demands a fundamentally different absorber architecture - one that simultaneously maximises solar absorption, localises heat at the air–water interface, and sustains a continuous capillary-driven supply of fresh liquid.

Capillary-structured porous membranes (CPMs) address these requirements through three synergistic mechanisms: (1) nanostructured surface roughness and low contact angle ($\theta < 15^\circ$) promote spontaneous wicking via the Young-Laplace pressure $P_c = 4\sigma \cos \theta/d$; (2) high solar absorptance ($\alpha > 0.91$) combined with low thermal conductivity minimises conductive loss to the subcooled bulk; and (3) lateral capillary flow continuously refreshes the evaporation front while sweeping accumulated salt ions away from the membrane surface, thereby suppressing concentration polarisation [5–9].

Despite impressive experimental demonstrations graphene aerogels [10], carbonised wood [11], Janus membranes [12] a rigorous three-dimensional coupled numerical model that simultaneously resolves heat transfer, mass transport, capillary momentum, and evaporation kinetics in a physically consistent framework remains absent from the literature. Existing models are predominantly one-

dimensional [12-13], neglect concentration polarisation [10-11], or decouple momentum from energy equations [14-15].

The present work fills these gaps by: (1) formulating a fully coupled 3D governing equation set within the Darcy–Brinkman–Forchheimer framework; (2) implementing an adaptive second-order FVM solver with SIMPLE pressure velocity coupling; (3) conducting an exhaustive parametric sweep over $\phi \in [0.20, 0.90]$ and $d \in [10, 200] \mu\text{m}$ to locate the global performance optimum; (4) validating predictions against original bench-scale experiments; and (5) delivering practical design guidelines for fabricators and system integrators.

2. Methodology

2.1. Discretisation strategy

The governing equations are discretised on a structured collocated Cartesian grid of $400 \times 400 \times 40 = 6.4 \times 10^6$ control volumes using a second-order central differencing scheme for diffusive fluxes and a TVD-MUSCL scheme for convective terms. The Crank-Nicolson method is used for time advancement with a self-adjusting time-step $\Delta t \in [0.01, 0.5] \text{ s}$ governed by simultaneous CFL (≤ 0.45) and Fourier (≤ 0.40) stability constraints. The pressure-velocity coupling employs the SIMPLE algorithm with under-relaxation factors $\omega_T = 0.8$, $\omega_u = 0.7$, $\omega_p = 0.3$. The values for calculations and comparison are given in Table 1.

2.2. Convergence and mesh sensitivity

Convergence is declared when all normalised residuals fall below 10^{-6} (typically achieved at $n \approx 340$ iterations per time-step). A mesh independence study was conducted on five successively refined grids (0.8, 1.6, 3.2, 6.4, 12.8×10^6 CVs); the 6.4×10^6 mesh yields a Richardson extrapolation error of 0.31% for the evaporation flux, at only 42.1 s CPU time per simulated minute on a 32-core workstation a favourable accuracy-cost trade-off as benchmarked in Table 2.

Table 1. Physicochemical properties of candidate solar absorber materials. CPM = capillary-structured porous membrane (this work)

Parameter	Lead carbonate	Al ₂ O ₃ membrane	Graphene aerogel	CPM (this work)
Porosity, ϕ (-)	0.35–0.45	0.40–0.55	0.85–0.95	0.55–0.75
Capillary diameter, d (μm)	50–200	5–50	100–500	10–80
Thermal conductivity, k (W/m·K)	0.8–1.2	5–15	10–80	2.5–8.0
Solar absorptance, α (-)	0.75–0.82	0.60–0.72	0.88–0.95	0.91–0.96
Salt rejection, SR (%)	88–92	85–90	82–88	94–99
Water contact angle, θ (°)	55–70	20–40	40–65	< 15
Cost (USD/kg)	12–18	25–40	180–350	8–15

Table 2. Benchmark of numerical schemes: accuracy vs. computational cost at equivalent physics ($\phi=0.65$, $G=1000 \text{ W/m}^2$, $t=30 \text{ min}$)

Numerical scheme	Mesh / time-step	L ² error (%)	CPU time (s)	Order
FDM (1st-order upwind)	$\Delta x=1.0 \text{ mm}$, $\Delta t=0.1 \text{ s}$	4.82	11.2	1
FEM (Galerkin, 2nd-order)	$h=0.5 \text{ mm}$, tet. elements	1.93	88.4	2
FVM (central diff., 2nd-order)	$\Delta x=0.5 \text{ mm}$, $\Delta t=0.05 \text{ s}$	1.47	33.7	2
FVM + adaptive Δt (this work)	$\Delta x=0.25 \text{ mm}$, adaptive Δt	0.28	42.1	2+

2.3. Mathematical Formulation

2.3.1. Physical domain and assumptions

The computational domain is a rectangular CPM slab of dimensions $L_x \times L_y \times L_z = 100 \times 100 \times 10 \text{ mm}$. Solar irradiance G [W/m^2] impinges on the top face ($z = L_z$); capillary feed water enters from the bottom face ($z = 0$); and lateral faces are thermally and hydrodynamically insulated. The following assumptions are invoked: (A1) the porous medium is homogeneous, isotropic, and rigid;

